

NAMANGAN ERTAKLARINING LOKAL BELGILARI.

Mamadaliyeva Mamlakat Qaxramon qizi
University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Namangan ertaklari va ularda uchraydigan lokal belgilar haqida fikr yuritiladi. Ertaklardan namunalar keltiriladi.

Kalit soʻzlar: ertak, bolalar, obrazlar, podshoh, maqol.

Аннотация: В статье рассматриваются намаганские сказки, ведутся рассуждения о локальных знаках, встречающихся в них. Приводятся примеры из сказок.

Ключевые слова: сказка, дети, образы, царь, пословица.

Abstract: The article discusses Namangan fairy tales and local symbols found in them. Examples are given from fairy tales.

Key words: fairy tale, children, images, king, proverb

Ertaklar xalq ogʻzaki ijodining ommaviy va qadimiy janrlardan biridir. Ushbu atama Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk” asarida “etuk” shaklida uchraydi. “Etuk-hikoya,ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun qoʻllanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan”. [1-98] Ertak atamasi Oʻzbekiston hududlarida turlicha nomlar bilan ataladi. Fargʻonada “matal” deb nomlansa, Toshkentda “choʻpchak”, Xorazmda esa “varsaki” deb ataladi. Namanganda ertak atamasi qabul qilingan. Namanganlik folklorshunos olim Sh.Turgʻunovning fikrlariga koʻra qadimda Namangan hududida ertak atamasining oʻrnida bayt atamasi qoʻllangan. Sababi Namangan ayollari yigʻilishib, bir-birlari bilan bahri-bayt kechalarini tashkil qilishgan.Ushbu qiziqarli va uzun kechalarda dono ayollar bir-birlariga Navoiy, Bobur, Mashrab kabi ulugʻ shoirlarimizning gʻazallaridan baytlar aytib, bahs-munozalar olib borishgan. Baʼzan bu kechalar tundan tongga ulangan. Bu adabiy kechaning guvohiga aylangan bolalar ham oʻz tengqurlari bilan “Bayt” kechalarini tashkil qilishgan va ular gʻazallar oʻrniga ertaklar aytishgan. Bu ertaklarni bolajonlar umumiy qilib “ Bayt” deb nomlashgan. Shu tarzda “ Bayt” soʻzining maʼnosi kengayib, faqatgina Namangan hududida ertak maʼnosini ham anglata olgan. Namangan ertaklarining tarixi ham ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. “ Ertaklarning paydo boʻlishida qadimiy urf-odat, marosimlar va miflar hal qiluvchi rol oʻynagan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibtidoiy tushunchalar xayoliy shakllar ifodalangan davrlardan boshlangan”.[2-41] Namangan ertaklarining lokal belgilarini har bir ertakda uchratishimiz mumkin. “Kambagʻal qiz” ertagining boshlanishi ham boshqa viloyatlarnikidan farq qiladi.

Zamonlarning zamonida bir podshoh bor ekan. Uning bir o'g'li bor ekan. U o'n ikki yoshga yetibdi. Shahar xalqi buning yomonligidan ko'p zerikibdi.

Ushbu ertakdagi yana bir lokal belgilardan biri: ertakning boshlanma qismidayoq aholi tomonidan podshohga shart qo'yilishidir.

Podshohga xalq arz qilibdi. "Yo o'g'ling tursin, yo biz turaylik" Shundan keyin ertakning asosiy qismi boshlanadi. Namangan ertaklarida sa'j usulidan ham mohirona foydalanilgan.

Erta bilan podshohzoda hovliga chuqur kavlatib, qizni kavlatib, qirq tola sochini bitta qilib tugib, bir xodani o'tkazib, o'ng yuziga bir tarsaki, chap yuziga bir tarsaki urib osib qo'yibdi.

Podshohzodaning qanday ekanligini aniq tarzda bildirish uchun ushbu usuldan samarali foydalanilgan. Bu esa ertakning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

"Kambag'al qiz" ertagidagi kambag'al qizning buvisinikiga borishiga ruhsat tekkani uchun xursand bo'lgan holati ham aynan shu sa'j usuli yozilgan.

Qiz xursand bo'lib, maxsisini chala kiyib, paranjisini egri yopinib, bo'ynida dasturxon xalpillatib ikki zog'orani yeb, achasining oldiga kelibdi. Ushbu jumlar orqali shoshgan va hayajonli qizning o'sha paytdagi holati yorqin tasvirlangan.

Bundan ko'rinadiki, Namangan ertaklarida nasriy qofiyadan ham samarali foydalanilgan. Namangan ertaklaridagi yana bir lokal belgi bu shevaga xos so'zlarning qo'llanilishidir.

Achasi, qizning rangini ko'rib:

- Ey, qizim, senga nima bo'ldi, ranging somondek sarg'ayib, nozik beling qildek bukilib, o'lar holatga yetibsan?

- Ey acha, kuyoving menga qirq kundan beri azob beryapti. Bir tishlam non yo'q, bir ho'plam suv yo'q, ikki tarsaki vazifa bor. Kechgacha zindonga solib, kechqurun chiqarib qo'yadi, -deb oh uribdi, og'zidan bir parcha et chiqib, yerga tushibdi. Achasi ko'rsa, jigarlari ezilib ketgan ekan.

Ushbu olingan parchada "acha" so'zi faqatgina Namangan shevasiga xosdir.

Bu so'z buvi so'zining o'rnida qo'llaniladi.

Uchqo'rg'on tumani Qurama qishlog'ida yashovchi Munajat To'ychiyevadan yozib olingan "Halollik" ertagida ham shevaga xos so'zlarni uchratishimiz mumkin. O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning qambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yer berishini iltimos qilibdi. Dehqon yeridan bir chekkasini qambag'al oshnasiga beribdi. Ushbu parchada oshna so'zi faqat Namangan hududida ishlatiladi. Bu so'z Izohli lug'atda shunday izohlanadi: tanish, tanish-bilish. Norbo'taning qizi doktorlikka o'qiydi, mingta oshnasi bor desang-chi! [3-556]

Bu so'z buvi so'zining o'rnida qo'llaniladi. Bundan tashqari, achaning tilidan aytilgan: ranging somondek sarg'ayib, nozik beling qildek bukilib iboralari mubolag'a

san'atini hosil qilgan. Ertak ichida boyning holati „ Igna yutgan itdek tirishib kabi shu tashbeh bilan ko'rsatilgan bo'lsa, podshohzodaning tushkun holati aniqroq tasavvur qilish uchun “Charvi yegan mushukday ko'zlari yiltillab, ko'p afsus yebdi” kabi tashbeh qo'llangan. Bu orqali Namangan xalqining naqadar so'zga ustaligini ham ko'rishimiz mumkin. Namangan ertaklarida badiiy san'atlardan ham mohirona foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

- Ering tarsaki urganda, qah-qah urib kul, yana urganda qattiqroq kul! “ Men ursam, yig'lamasdan nimaga kulasan?” desa, aytginki, “ Urganingiz un oshi, so'kkaningiz so'k oshi” Ushbu parchada maqol keltirilyapti. Badiiy san'atning irsoli masal san'atidan foydalanilgan. Shu o'rinda ushbu maqolni izohlab ketsak. Xalqimiz orasida turli xil urf-odatlar mavjud. Namangan viloyati Chust tumani Karkidon qishlog'ida yashovchi Ahrorova Umida opaning ma'lumotlariga ko'ra: To'y marosimidan so'ng, kuyovning ota-onalari yangi qudalarini mehmonga chaqirib, ularga an'anaviy taom bo'lgan un oshini(ba'zi hududlarda kesma osh, ba'zi joylarda esa ugra deb nomlanadi) tortiq qilishgan. Bunga sabab: kelinchak shu uyda o'ralashib qolishi, yangi tushgan uyiga mehr qo'yishi hamda yangi qudalarning munosabatlari ham bir-birlari bilan uzoq yillar yaxshi davom etishi uchun bu marosim o'tkaziladi. Endi maqolimizning ikkinchi qismiga e'tibor qaratsak, so'kkaningiz so'k oshi. Biz so'k ma'nosini izohli lug'atdan ma'nosini topdik.

So'k Tozalangan tariq. Xom so'k. Qovurilgan so'k. So'k oshi. Ovqatga so'k solmoq.// So'k talqon. – Teri tag'in sakrabdi, oldiga yo'lab bo'lmaydi, oziq-ovqatchi, qayda! Mosh, gurunch tugul, so'k ham ololmadim. Oybek. Qutlug'qon.[3-98]

Ertakdagi bu kichik maqol orqali Namangan buvilari nabiralariga shukronalik tuyg'ularidan ham saboq berishyapti. Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashash kerakligini uqtirishgan. Turmush o'rtog'ining Sababi oilada har qanday vaziyatdan chiqish yo'lini dono ayollar topa olishi mumkin ekanligini o'rgatib ketishadi. Bundan ko'rinadiki, Namangan ertaklari voqealar zanjirining ketma-ketligi mobaynida badiiy jihatdan mustahkamlanib boraveradi. Namangan ertaklarida qo'llaniladigan bir lokal belgilardan biri bu: ertaklar ichida Namangan bolalar o'yinlarining aks etishidir. “ Kambag'al qiz” ertagida ham bir nechta o'rinlari bolalar o'yinlari bilan bog'liq. Ertakning kirish qismida podshohzoda ta'lim olish uchun maktabga boradi, shunda uning domlasi bu bolani “ urib-so'ksam podshoh meni o'ldiradi” deb, to'rtta yong'oq , bitta soqqa berib, bolalar bilan o'ynatib yuradi. Bundan ko'rinadiki, Namanganda “ yong'oq urushtirish” o'yini qadimdan mavjud bo'lib, bolalarning eng sevimli mavsumiy o'yinlaridan hisoblanadi. Ko'pgina ertaklarda uchraydigan shatranj o'yini “Kambag'al qiz” ertagida ham uchraydi.

Uchqo'rg'on tumani Qurama qishlog'ida yashovchi Munojat To'ychiyevadan yozib olingan “ Halollik” ertagida ham shevaga xos so'zlarni uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. I tom.-Toshkent: 1960.B-113.
2. M.Sulaymonov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan:2008.B-96
- 3.O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. 1981.B-715
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. 1981.B-556